



PERIFRAZALARNING “MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDAGI O‘RNI

Dilnoza Tojiboyeva

Farg‘ona shahar 19-IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: “Perifrazalarning “Mehrobdan chayon” romanidagi o‘rni mavzusida yozilgan ushbu maqolada badiiy tasvir vositalaridan biri prefiraza haqida so‘z yuritilgan. “Mehrobdan chayon” romanida Abdulla Qodiriy tomonidan mahorat bilan qo‘llangan perifrastik misollar yordamida tushuntirib berilgan.

Kalit so‘zlar: dialektizm, o‘xshatish, jonlantirish, mubolaga‘a, sinekdoxa, tasviriy vositalar, prefiraza.

Kirish

O‘zbek adabiyotida nom qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini o‘rganish eng avvalo, adibning mahoratini o‘rganish shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta‘sirini belgilashdan iborat. Bu o‘rinda fikrimiz dalili sifatida Abdulla Qodiriy qalamiga mansub asarlar ro‘yxatini keltirish haqiqatdan holi bo‘lmaydi. Adib asarlari tili xalqchillik ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lib, unda davr nafasi ufurib turadi, Ularda voqealar ro‘y berayotgan makon, zamon va qahramonlar xarakteridagi o‘ziga xos qirralarni ochishda yozuvchi dialektizm, o‘xshatish, jonlantirish, mubolaga‘a, sinekdoxa kabi tasvir vositalarini keng qo‘llagan. Ana shunday tasvir vositalaridan biri “prefiraza” bo‘lib, undan foydalanish orqali “Mehrobdan chayon” romani tilining rang-barang va ohangdor bo‘lishini ta‘minlashga erishilgan. Abdulla Qodiriy hassos so‘z ustasi sifatida tilning botinida, tub qatlamlarida yashiringan so‘z qo‘shilishi imkoniyatlarini badiiy tarzda ishga soladi. Buning natijasida kutilmagan so‘z qo‘shilmalari yuzaga keladi. Ular kitobxon diqqatini jalb qilib, uni o‘ylashga chorlaydi, alal-oqibat o‘quvchi bu qo‘shilmalarda yashiringan bo‘lgan ma‘no sirlarini kashf etadi.

Asosiy qism

“Prefiraza” grekcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “yaqin gapiraman” degan ma‘noni anglatadi. Unda nutqning ifodaviyligini oshirish maqsadida narsa, inson yoki hodisa o‘z nomi bilan emas, balki unga xos asosiy belgilar, xususiyatlar nomi bilan yuritiladi hamda turli xil iboralar yordamida bayon qilinadi.

“Mehrobdan chayon” romani tilida prefiraza tasviriy vosita, bior so‘zni alamashtiruvchi tasviriy element, ekspressiv-emotsionallikni oshiruvchi ko‘chim turi sifatida qo‘llanadi. Yozuvchi o‘z asarida ma‘lum bir predmet yoki inson faoliyati bilan bog‘liq hodisani yangicha nomlash orqali fikrni aniq tasvirlashga erishgan. Bunda perifrastik ma‘n nomlangan so‘zning ma‘nosiga qaraganda ancha ta‘sirchan va ifodaviy ko‘rinish kasb etgan.

Xususan, “Mehrobdan chayon” romani matnida Ra‘noning egasi, talab ahlining mirzosi, maxdumning asrandisi, ko‘krak bolasi, Mohlaroyimning yarasi, pushtipanoho, qiblayi olam, haram dalasi, hayot sham‘i, moltopar, zarurat singari qo‘shilmalar perifrastik ma‘no ifoda etish uchun ishlatilgan.

“Ra‘noning egasi” , “talab ahlining Mirzosi” , “maxdumning asrandisi” kabi perifrazalar romanning bosh qahramoni Mirzo Anvarni ifodalab, muallif nutqini takror va qaytariqlardan



saqlagan . Nigor oyim “Ra’noni egasiga topshirmag‘uningizcha ...” deb garchi bir muncha qo‘polroq ta’bir bilan bo‘lsa ham “Ra’noning egasi” borlig‘ini so‘zlar, Ra’no ersa egasining kim ekanligini yaxshi bilgani va uni qanot qoqib qarshi olg‘ani uchun jodu ko‘zida rizosizliq emas, surur ma’nolari o‘ynatar edi”(“Mehrobdan chayon” 8-bet)

Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin,

Na baxt , Ra’no xaridoring talab ahlining “Mirzosi””(“Mehrobdan chayon” 108-bet).

Adib “ko‘krak bolasi” perifrazasi vositasida o‘ziga xos ma’no nozikligini kashf etgan. Nigor oyim hozirg‘ina qizlarni ozod qilib qo‘yub, ko‘krak bolasini bag‘riga‘a olg‘an edi ”(“Mehrobdan chayon” 6-bet).

Asar tilida qo‘llanilgan “pushti panoho” , “qiblayi olam” tasviriy ifodasi zamon hukmdori Xudoyorxonni qayta nomlagan. –Pushti panoho! – dedi hudaychi,- xiyonatkor o‘z ixtiyori bilan kelib, domi adolatingizga taslim bo‘lmoqchi ”(“Mehrobdan chayon” 276-bet)

Xonlik zamonining sharoiti ma’lum, o‘sha paytlarda ikki farzand I uchun ham ota, ham ona bo‘lgan Mohlarouimning ardi o‘g‘il uylash va qiz chiqarishda ekanligini muallif quyidagicha bayon qiladi : Yurt emasmi degandek yurtchilikda yurak og‘rig‘iga davo topilmay qolmas. Shunga o‘xshash Mohlaroyimning yarasi ham nihoyat uchinchi yilda davosini topdi.

Xon o‘rdasining mutavaffo mirzolaridan bittasining madrasada o‘qub yurg‘an o‘g‘li bor edi va uyida chaqich chaynab o‘lturgan o‘n olti yoshliq qizchasi ham bor edi. Bu oila Mohlaroyimning taklifini ma’almammuniyat qabul etdi... “Hay etti, huy etti, ikki koski to‘y etti” deganlaridek har ikki to‘y ham bir hafta ichida o‘tti. Naimaxonim u yoqqa ketib, Nigorxonim bu yoqqa keldi. Shunday qilib Solih maxdum xotinliq bo‘ldi (“Mehrobdan chayon” 13-bet.)

“Haram dalasi” perifrastik qo‘shilmasi zamiriga xon uchun yangi qizlarni topib beruvchi haram qo‘shmachisi - Gulshan nomi yashiringan va bu orqali shu ayol shaxsiga ishora qilingan. Zeroki “ Gulshan” so‘zi bir xotinning ismi bo‘lib, bu xotin xong‘a chiroyli qizlar topib beruvchi haram dallasidir. Ular o‘zlarining iflos niyatlariga shu xotin orqali q yetmakchi , shu vositada mirzo Anvardan o‘ch olmoqchi bo‘lg‘anlar” (“Mehrobdan chayon” 196-bet).

“Mehrobdan chayon” badiiy matnida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan va mahorat bilan tanlangan “moltopar” perifrazasi bilan predmet , ya’ni mahalla kishilari tomonidan tomonidan yetti yildan buyon maxdum pochchasiga beminnat xizmat qilib tolman, yil sayin turli yamoqlar bilan boyib brogan chopon nomiga murojaat qilingan. Shunngdek , “zarurat” perifrastik birligi ham aynan maxdumning nozik joylarga o‘ta ehtiyotlab kiyib boradigan ustboshi haqida ma’lumot beradi... guppy kiyilib chiqig‘an kun maxdumga sezdirmay “moltopar savdodan qaytibdi... hali baquvvat, ishqilib, yamoqqa charchamasang yana o‘n yilingmi, Mamarayim !” deb kulishadilar (“Mehrobdan chayon” 15-bet) . Ra’no xotinni jo‘natib, ichkariga kirganda , maxdum “zarurat” to‘nini kiyib, o‘ziga oro bergan holda , ayvondan tushib kelar edi (“Mehrobdan chayon”198-bet).

Asar matnida shakllantirilgan “sham’i hayot perifrazasi Anvarni necha yillardan beri Solih maxdum eshigida qolishi, opasi Nodiraning : “Men seni onamning uyiga charog‘chi bo‘larsan, deb sevingan edim. O‘z istiqboling uchun qayg‘urmay, bir kishini semirtirib, yurishing aqlli yigitlarning ishi emas, Anvar !” qabilidagi ta’nalariga bo‘yin egishiga sabab bo‘lgan muhabbati Ra’no nomi o‘rnida almashib qo‘llangan. Ota-oqning charog‘ini yoqish uchun avvalo o‘ziga bir sham’i hayot topmoqchi va o‘zi shamsiz turib, ota-onag‘a charog‘ yoqishni aslo tasavvur qilolmas, ya’ni istiqbol Anvarning fardi hayotida yolg‘iz muhabbat edi (“Mehrobdan chayon” 104-bet).

Bundan tashqari “Mehrobdan chayon” matnida Hazrat Yunusning mo‘jizalari, Bibi Fotimayi



Zahroning duolari barakoti kabi yoyiq holdagi perifrastik soʻz qoʻshilmalari ham uchraydi. Ular orqali ijodkor Solih maxdum oshxonasining bahosi arzon va lekin xosiyati koʻp boʻlgan mablagʻlari sholgʻom va oshqovoq qayta shakllantirgan. Matnda qoʻllangan zulm oʻchogʻi (Xudoyorxon uchinchi bor taxtga chiqqan paytda Fargʻona ustida oʻzi tilangancha qamchi oʻynatgan va zulm oʻchogʻiga aylandi), huzuri muborak (xon qabuli), gulxan (yigit bagʻri) kabi perifrazalar ham asar nutqini bezash uchun xizmat qilgan.

Xulosa

Bundan koʻrinadiki, Abdulla Qodiriy badiiy asar matnida perifrazalarni qoʻllash estetik qimmat kasb etib, nutqning ekspressivlik darajasini yuksaltirishini koʻrsatib bergan.

Adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon”. Sharq.2015.-288 bet.
2. Maʼrufjon Yoʻldoshev “Badiiy matn lingvopoetikasi”. Fan.2008-159 bet.